

ORGANIZMDA LIPIDLAR MIQDORINING O‘ZGARISHIGA JIGARNING TA’SIRI

v.b. prof. M.M. Ikramova, talaba F.E. Yuldasheva, talaba U.X. Xotamjonovich
Andijon davlat universiteti
Zoologiya va biokimyo kafedrası

Annotatsiya: Tezida jigar jarohatida yog‘lar, fosfolipidlar, xolesterin miqdorining o‘zgarishi va ularni mo‘tadillashtirish yo‘llari, shuningdek jigarning zararli moddalarni zararsizlantirish mexanizmlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Lipid, fosfolipid, xolesterin, jigar, siydikchil, bilirubin, glyukuron kislota, glikogen, sulfat kislota, uchatsilglitserid

Аннотация: В тезисе при заражении печени указывается изменение содержания жиров, фосфолипиды, холестерина и пути нормализация их а также механизмы его обеззараживание ядавитих соединение.

Ключевые слова: Липид, фосфолипид, холестерин, печень, мочеви́на, билирубин, глюкуроновая кислота, гликоген, серная кислота, триацилглицерид

Abstract: The thesis shows the changes in the amount of fats, phospholipids, cholesterol and their moderation in liver injury, as well as the mechanisms of the liver's detoxification of harmful substances.

Key words: Lipid, phospholipid, cholesterol, liver, uric acid, bilirubin, glucuronic acid, glycogen, sulfuric acid, triacylglyceride

Jigar massasining 5 % lipidlardan, asosan yog‘lar, fosfolipidlar va xolesterindan iborat. Semirishda jigar massasini 20% gacha yog‘ tashkil qiladi, jigarni yog‘ bosishida yog‘ massasi 50% ko‘tariladi. Jigarda 150-200g glikogen bo‘ladi.

Jigarda zaharli moddalarni zararsizlantirish jarayoni kechadi. Bunga misol tariqasida siydikchil (mochevina) sintezini olish mumkin, zaharli ammiak shu tarzda zararsizlantiriladi va siydik bilan organizmdan chiqarib yuboriladi. Ko‘pgina zaharli moddalar jigarda sulfat kislota va glyukuron kislotalari yordamida zararsizlantiriladi.

Sulfat va glyukuron kislotalar faol xolatdagina zararsizlantirish reaksiyalariga kirisha oladi. Ularning faol holati 31-fosfoadenozin-51-fosfosulfat va uridil fosfoglyukuron kislota hisoblanadi. Glyukuron kislota modda almashinuvida hosil bo‘lgan ko‘pgina moddalarni zararsizlantira oladi. Shulardan erkin bilirubin ma‘lum darajada zaxarli bo‘lib, jigarda glyukuron kislota bilan mono va diglyukuronid bilurubin hosil qilish yo‘li bilan zararsizlantiriladi. Jigar enzimlari barcha lipid almashinuvi mahsulotlarini sintezlash va parchalash hususiyatiga ega. Natijada yuqori yog‘ kislotalari, uchatsilglitseridlar, fosfolipidlar va xolesterinlar sintez bo‘ladi, yuqori yog‘ kislotalari oksidlanadi [2].

Endemik gepatitda jigarning har xil kimyoviy va o‘simlik tarkibidagi gepatotoksik moddalar bilan hastalanishida, jigarda morfologik o‘zgarishlar bo‘lib, jigarni distrofik va nekrotik o‘zgarishiga olib keladi. Bu jarayon faqatgina jigarga tashqi zaharli agentlarning ta’siri bilangina kelib chiqmaydi, balki jigar sinusoidlarida qon almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Jigarning ichki qon aylanishi buzilishi natijasida organizmga gepatotoksik moddalar ta’sir etganda jigar hujayralarida kislorod yetishmasligi ro’y beradi; natijada hujayra ichidagi enzimlarning faolligini pasayishiga olib keladi. Jigar yog‘ almashinuvida muhim rol o‘ynaydi. Jigarga tushgan yog‘lar yog‘ zahiralardan energiya manbai sifatida ajralib chiqadi.

Ekzogen (tashqi) yog‘lar ichakdan limfa orqali umumiy qon aylanish doirasiga tushadi. Bular asosan uchatsilglitseridlar bo‘lib, ular parchalanmagan holda so‘riladi va u ichak devorida yog‘lar va fosfatidlar biosintezida ishlatilmagan, yuqori yog‘ kislotalari holda jigarga tushadi, oz miqdordagi yog‘lar ichakda so‘rilganda darvoza venasi orqali jigarga tashiladi. Bular asosan, qisqa zanjirli yog‘ kislotalari hisoblanadi. Umumiy qon aylanish doirasiga tushadigan uchatsilglitseridlar mayda yog‘ tomchilari sifatida bo‘ladi va xilomikronlar deb ataladi. Ular ichak devorida so‘rilganda hosil bo‘ladi va ular yog‘lar hazm bo‘lishida yog‘larning asosiy tashiluvchi shakli hisoblanadi. qondagi xilomikronlarni qabul qiluvchi a’zo asosan jigar, yurak va yog‘ to‘qimalari hisoblanadi [3, 5].

Endogen (ichki) yog‘lar jigarga yog‘ to‘qimalaridan tushadi. Yog‘ to‘qimasi faol moddalar almashinuvida qatnashadi. Yog‘ zahiralarga karbonsuvlar tashilib turadi va ular yog‘larga aylanadi. Yog‘ to‘qimalari doimiy harakatda bo‘lib, unda uchatsilglitseridlar parchalanib va sintez bo‘lib turadi. Yog‘larning yog‘ depolaridan tashilishida uchatsilglitseridlar parchalanib, erkin yuqori yog‘ kislotalari qonga o‘tadi. Yog‘ to‘qimalaridagi uchatsilglitseridlar yog‘ almashinuvida karbonsuvlar almashinuvidagi glikogen vazifasini bajaradi[1,4].

Uchatsilglitseridlar fiziologik faol holatda bo‘ladi, glikogen organizmning fiziologik holatlarida ularni energiya bilan ta’minlash uchun ishlatiladi. Yog‘ to‘qimalarida yog‘larning uchatsilglitserid shaklida emas, balki erkin yog‘ kislotalari shaklida bo‘lganligi uchun qonda yog‘ kislotalarining miqdori yuqori bo‘lib, ular organizmni 50-60% gacha energiya bilan ta’minlaydi. Yog‘ kislotalarining almashinuvida jigar miqdoriy jihatdan 60% vazifani bajarsa, boshqa a’zolar esa 40% vazifa bajaradi.

Adabiyotlar

1. Когтева Г.С., Безуглов В.В. Ненасыщенные жирные кислоты как эндогенные биорегуляторы. // Ж. Биохимия.- Москва, 1998. -Т. 63. Вып. 1.- С. 6-15.

2. Ленинджер А. Бионэнергетика и метаболизм. Основы биохимии. Москва: Наука, 1985. -Т-2. -С. 439-550.

3. Проказова Н.В., Звезда Н.Д., Коротаева А.А. Влияние лизофосфатидилхолина на передачу трансмембранного сигнала внутри клетки. // Ж. Биохимия. -Москва, 1998. -Т.63.Вып.1. - С.38-46.

4. Ткачук В.А. Фосфоинозитидный обмен и осцилляция ионов Ca^{2+} . // Ж. Биохимия. - Москва, 1998. -.Т.63.-№1.- С. 47-566.

5. Тожибоев К.Т., Қодиралиева М.Р. Жигарда моддалар алмашинувининг ўзгаришига таъсир этувчи омиллар. //Фарғона водийсининг ўсимлик, ҳайвонот дунёси ва улардан оқилона фойдаланиш муаммолари Регионал анжуман материаллари. - Андижон, 1999. 116-117 б